




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar- mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1729,3 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,3 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1646,8 mlrd.so'mni (101,3 foiz), ovchilikda – 0,2 mlrd.so'mni (100,0 foiz), o'rmon xo'jaligida – 75,5 mlrd.so'mni (101,7 foiz), baliq xo'jaligida – 6,8 mlrd.so'mni (102,3 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (108,5 foiz), Muborak (107,1 foiz), Qarshi shahar (104,2 foiz), Shahrisabz shahar (104,0 foiz), Koson (103,7 foiz), Dehqonobod (103,2 foiz), Qamashi (102,1 foiz), Kasbi (102,1 foiz), Kitob (101,7%), Qarshi tuman (101,5 foiz), Shahrisabz (100,4 foiz), Chiroqchi (100,2 foiz), Yakkabog' (100,2 foiz), kuzatildi. Nishon (98,1 foiz) va G'uzor (94,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot ( xizmat ) larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi ( 12,3 foizni ) tashkil etdi, va tumanlar boyicha etakchilik qilmoqda. Kitob ( 10,0 foiz ), Qarshi tuman ( 9,5 foiz ), Shahrisabz (8,6 foiz) Yakkabog' ( 7,8 foiz ), Koson ( 7,7 foiz ), Qamashi ( 6,7 foiz), Dehqonobod ( 6,3 foiz), Kasbi ( 5,9 foiz ), va Nishon ( 5,5 foiz), Muborak ( 4,9 foiz), Mirishkor ( 4,8 foiz) ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qarshi shahar (1,9 foiz), Shahrisabz shahar (0,5 foiz) larida qayd etildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 100,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 102,3 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 85,7 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 11,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3,1 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tumanlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik



2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 196,6 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 12,0 foizni tashkil qildi.

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,0 ming tonna (100,2 foiz), sabzavotlar ishlab chiqarildi.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida sabzavotlarning 98,5 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi.




## Chorvachilik



2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1443,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 88,0 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 40,3 ming tonna go'sht ( 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 2,1 foizga ko'p), 132,7 ming tonna sut (3,1 foizga), 88,1 mln.dona tuxum (7,9 foizga) 59,6 ming dona ( 4,9 foizga) qorako'l teri ishlab chiqarildi.

## Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 95,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,3 foizi, tuxumning 59,6 foizi, qorako'l terining 90,3 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar vaparrandalarbosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1573,3ming boshga, shu jumladan sigirlar – 514,6 ming boshga, qo'y va echkilar – 4526,5 ming boshga, parrandalar – 5910,4 ming boshga etdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 45,1 ming boshga (3,0foizga), shu jumladan sigirlar – 18,6ming boshga (3,8foizga), qo'y va echkilar – 62,3ming boshga (1,4foizga), parrandalar – 500,4ming boshga (9,2 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 3,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 4,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 64,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• (0371) 230-83-95  
• (0371) 230-83-96